



2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 38 (1637), 2026-yil 25-fevral, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



AZM-U SHIJOATLI, BILIMLI VA BUNYODKOR YOSHLAR UCHINCHI RENESSANS ASOSCHILARI, MILLIY TARAQQIYOTIMIZ KAFOLATIDIR

Ko‘ksaroy qarorgohida 24-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan navbatdagi muloqoti bo‘lib o‘tdi



Davlatimiz rahbarining navqiron avlod vakillari bilan uchrashuvi an’anaviy tus olgan va har galgi muloqotni yoshlarimiz intiqlik bilan kutadi. Bu bejiz emas. Mazkur muloqotlarda nafaqat yoshlarga, balki butun mamlakatimiz taraqqiyotiga daxldor ko‘plab masalalar o‘rtaga tashlanadi. Yoshlar taklif hamda tashabbuslari eshitilib, yechimlar beriladi. Shu tariqa milliy taraqqiyotimizning jo‘shqin sur‘ati belgilanadi.

Bu galgi muloqotda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi studiyalar orqali 60 mingdan ziyod yosh avlod vakillari ishtirok etdi. Shuning o‘ziyoq muloqotning nechog‘liq muhim va ahamiyatli ekanini anglatadi.

Prezidentimiz 2022-yilda mamlakatimiz o‘g‘il-qizlarini Yoshlar kuni bilan tabriklab, nutq so‘zlaganida yoshlarga xalq shoiri G‘afur G‘ulomning so‘zlari bilan murojaat qilganini bugun ham unutganimiz yo‘q:

“Siz axir osmonni olmoq bo‘lsangiz, Ne uchun yelkamni tutib bermayin?”.

Darhaqiqat, bugungi O‘zbekiston yoshlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, har tomonlama ko‘llab-quvvatlanayapti. Ular yurt tayanchi, mamlakat taraqqiyoti kafolati sifatida ko‘rilib, yuksak ishonch bildirib

kelinmoqda. O‘z navbatida, yoshlarimiz ham turli jabhalarda o‘zlarini namoyon etyapti. Bu davlatimiz rahbarining yoshlar bilan navbatdagi muloqotida aytilgan fikr va mulohazalarda, g‘oya va tashabbuslarda yana bir karra o‘z isbotini topdi.

Yoshlikni umr bahoriga qiyoslashadi. Buning ham o‘ziga xos jihati bor. Ya‘ni bahor atrof-muhitni uyg‘otuvchi, jonlanishga undovchi tabiat qoidasi bo‘lsa, insonning yoshlik davridagi har qanday ezgu harakati butun umriga tatiguvchi maqsadni anglatadi. Shu jihatdan yurtimizga ayni bahor fasli kirib kelishi oldidan tashkil etilgan muloqot ham alohida ma‘noga ega. Binobarin, yoshlikda olingan bilim, ilm, kasb-hunar oltinga teng. Quvonarlisi shundaki, bugun yurtimizda ana shu oltinga teng lahzalardan unumli foydalanish orqali eliga naf keltirayotgan oltin avlod voyaga yetmoqda. Ularni har sohada suylab, qo‘llash, yelka tutish esa yangi O‘zbekiston zimmasidagi dolzarb va ustuvor vazifaga, islohotlarning bosh mazmun-mohiyatiga aylangan.

Prezidentimizning yoshlar bilan shaxsan uchrashib, ochiq muloqot qilishi, dildan suhbatlashishi ana shu siyosatning eng yorqin va unutilmas voqeasidir.

Ayni paytda mamlakatimiz aholisining 22 milliondan ziyodi yoshlardan iborat. Davlatimiz rahbari muloqot avvalida buni alohida ta‘kidlar ekan, **“Yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz timsolida biz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchni ko‘ramiz”**, dedi.

Darhaqiqat, bugun yoshlarimiz tomonidan qo‘lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar ham, bunga zamin bo‘layotgan imkoniyatlar ko‘lami ham tobora ortib bormoqda. Yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida so‘nggi yillarda yoshlarimiz jahon fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi.

Garvard, Yel, Prinston, Kolumbiya, Kornell kabi dunyoning eng nufuzli oliygohlarida tahsil olayotgan yoshlar safi 500 nafardan, TOP-100 talikka o‘qiyotgan o‘g‘il-qizlar soni 3,5 mingdan oshdi.

Yangilikka intiluvchan yoshlarimiz yaratgan 63 ta startap loyiha AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlar bozoriga kirib bordi. Ya‘ni ular endi o‘z aql va mehnat mahsullarini jahon bozoriga olib chiqayotgan avlodga aylanmoqda.

Yosh sportchilarimiz xalqaro arenalarda 720 ta oltin, 671 ta kumush

va 854 ta bronza medal sohibi bo‘ldi. Bugun yosh tadbirkorlar yurtimizdagi biznes vakillarining 35 foizini tashkil etmoqda.

Yoshlar xususida gap ketganda, tarbiya va ta‘lim masalasi birinchi navbatdagi ustuvor vazifa sifatida yuzaga chiqaveradi. Chunki o‘tib kelayotgan yosh avlod yerga qadalgan yangi niholdek nozik, e‘tibortalab bo‘ladi. Ya‘ni ular ayni shu pallada parvarishga muhtoj. Hozirgi kunda yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, qulay o‘qish va ish muhitini yaratishdir. Jumladan, bolaning intellektual, ijtimoiy va ma‘naviy rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblangan maktabgacha ta‘lim yo‘nalishidagi ishlar tufayli maktabgacha ta‘lim bilan qamrov 78 foizga yetdi. Ayni paytda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xususiy o‘quv markazlari soni 38 mingdan oshdi. Keyingi olti oyda hududlarda 120 dan ziyod o‘quv markazi ish boshladi. Bu ko‘rsatkich yanada ortadi. Negaki endilikda olis hududlardagi o‘quv markazlari o‘qituvchilari daromad solig‘i 7,5 foizga tushiriladi. Ehtiyojmand oilalar farzandlarini bepul o‘qitgan o‘quv markazlari yer va mol-mulk solig‘idan ozod etiladi.

Muloqotda ta‘kidlanganidek, har yili mehnat bozoriga 600 ming yosh kirib kelmog‘da. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkich 1 millionga yetadi. Bu ularni o‘z qiziqish va imkoniyatiga mos ish bilan ta‘minlash muhim masala, degani.

Yoshlar o‘rtasidagi so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, ularning uchdan biri tadbirkor bo‘lish istagini bildirgan. O‘tgan yili “Yoshlar biznesi”, “Kelajakka qadam” dasturlari hisobidan 15 ming yosh o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘yib, 50 ming odamni ish bilan ta‘minlagan. Bu yil esa yoshlar tadbirkorligi uchun qo‘shimcha ravishda yana 200 million dollar ajratiladi.

O‘zini o‘zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdori 100 milliondan 300 million so‘mgacha oshiriladi. Yosh tadbirkorlar loyihalari uchun 10 milliard so‘mgacha kredit ajratish mumkin bo‘ladi. Innovation startap loyihalarga esa 100 ming dollargacha investitsiya kiritishga ruxsat beriladi.

Servis va umumiy ovqatlanish sohasida mingdan ziyod ish o‘rni yaratgan mahalliy brendlardan franshiza olib, filial ochishga qiziqayotgan yoshlar uchun qulay moliyalashtirish paketlari joriy qilinadi.

Bunda, albatta, yoshlarning mahalla hayoti, texnikum va oliygohlardagi o‘qishi,

iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi faoliyati muhim. Ya‘ni endilikda oliy o‘quv yurtlari rahbarlari yoshlarni o‘qitish barobarida, ishli bo‘lishida ham mas‘uliyatni zimmasiga olishi kerak. Buning uchun ular ishlab chiqarish subyektlari, xizmat ko‘rsatish korxonalari, umuman, barcha tarmoqlar bilan aloqani mustahkamlaydi. Mas‘ullar tomonidan qilingan ishlar muntazam tahlil qilib boriladi.

Ta‘lim va fan sohasiga investitsiya — kelajak uchun sarmoya. Binobarin, iqtisodiy o‘shining eng muhim jihatlardan biri inson kapitali ekan, yurtimizda qilinayotgan ishlar, amaliy sa‘y-harakatlar ayni shunga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda O‘zbekiston Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng tez sur‘atlarda rivojlanayotgan davlat sifatida e‘tirof etilayotgani bejiz emas. Joriy yilda Toshkent shahrida Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati bosh qarorgohi tashkil etilishi, Samarqand shahrida Yoshlar parlamenti a‘zolarining 12-global konferensiyasi, “Take Off” xalqaro startap sammiti va 46-jahon shaxmat olimpiadasi o‘tkazilishi bu maqomni yanada mustahkamlaydi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON VA BELARUS O‘RTASIDA KO‘P QIRRALI SHERIKLIK MUNOSABATLARI KENGAYIB BORMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo‘lib turgan Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchinni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Belarus ko‘p qirrali sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Hamkorlik, ayniqsa, savdo-iqtisodiy sohada yuqori darajaga ko‘tarilgani mamnuvniyat bilan qayd etildi. O‘tgan yili tovar ayirboshlash 25 foizga o‘sis,

qariyb 1 milliard dollarga yetdi. Yetakchi kompaniyalarning ustuvor tarmoqlardagi kooperatsiyasi kengayib bormoqda.

Mashinasozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi hamda boshqa sohalarida qo‘shma loyihalarni ilgari surish orqali iqtisodiy hamkorlikning yangi kun tartibini shakllantirish muhim ekan ta‘kidlandi.

Shuningdek, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish zarurligi ko‘rsatib o‘tili.

O‘ZA

YANGI O‘ZBEKISTON



Buyuk o‘zbek yo‘li

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 5-6-fevral kunlari Pokiston Islom Respublikasiga davlat tashrifi davlatlarimiz o‘rtasidagi strategik hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishga asos yaratgani bilan tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

Binobarin, tashrif davomida erishilgan kelishuv va shartnomalar nafaqat mamlakatlarimiz, balki Markaziy va Janubiy Osiyo-ni o‘zaro bog‘lovchi, to‘ldiruvchi sifatida har ikki tomonga ulkan imkoniyatlar taqdim etadi. Agar masalaga O‘zbekiston manfaati nuqtayi nazaridan qarasak, Pokiston portlari dengiz yo‘liga chiqishimiz uchun dunyo bozoriga eltuvchi darvozalarning oltin kaliti vazifasini bajaradi. O‘z navbatida, Pokiston ham o‘zaro manfaatli hamkorlikni kuchaytirish, mamlakatimiz bilan do‘stona munosabatda bo‘lish tarafdori.

Tashrif davomida davlatimiz rahbariga “Nishoni Pokiston” ordeni topshirildi. Marosimda ishtirok etgan Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif “Nishoni Pokiston” davlatning eng oliy mukofoti ekan, agar bundan ham yuksakroq mukofot bo‘lsa, unga ham eng munosib shaxs Shavkat Mirziyoyev bo‘lishini ta‘kidlab, lutf etdi. Bu e‘tirof Prezidentimiz bilan birga yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida xizmat qilayotgan xalqimizga ko‘rsatilgan yuksak ehtirom ramzidir.

Davomi 3-betda



2026-yil 25-fevral, 38-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Yurtimizdagi 22 milliondan ziyod yoshlarimiz timsolida biz juda katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy kuchni ko'ramiz.

**Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

AZM-U SHIJOATLI, BILIMLI VA BUNYODKOR YOSHLAR UCHINCHI RENESSANS ASOSCHILARI, MILLIY TARAQQIYOTIMIZ KAFOLATIDIR

Boshlanishi 1-betda

Joriy yildan “Kelajak tadbirkori” dasturi ishga tushirilib, yosh tadbirkorlarga 7 yil muddatgacha 15 foizli kredit ajratish yo'lga qo'yiladi. Xususan, o'zini o'zi band qilgan yoshlarga garovsiz 20 million so'mgacha, tadbirkorlik ko'nikmasiga ega bo'lib biznes boshlayotganlarga 300 million so'mgacha, faoliyatini kengaytirmoqchi bo'lganlarga 2 milliard so'mgacha, kamida 5 nafar bitiruvchini ishga olgan tadbirkorlarga esa 10 milliard so'mgacha kredit berilishi belgilandi.

Muloqotda tadbirkorlikni endi boshlayotgan yoshlarning 30 foizi biznes ko'nikmasi yetishmasligi sabab qiyinchilikka uchrayotgani qayd etildi. Shu bois, har bir hududda tadbirkorlikka o'qitish, g'oyani biznesga aylantirish, buxgalteriya, bank, marketing, ichki va tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha kompleks xizmat ko'rsatadigan “Yoshlar biznes inkubatori” tashkil etiladi.

Nufuzli xorijiy oliygohlar ilg'or tajribalar asosida yoshlarni tadbirkorlikka o'qitishda hamkorlik qilishga tayyor ekanini qayd etilib, kamida 40 ming yoshni biznesga o'rgatadigan “Yangi avlod tadbirkorlari” dasturini boshlash belgilandi. Dasturni muvaffaqiyatli tugatgan eng yaxshi 1 ming yoshning loyihasiga uch

yil muddatga 200 million so'mgacha 7 foizli suda beriladi.

Ijtimoiy tashabbuslar bo'yicha “Fikringni ber (Voice Up)” inklyuziv oromgohi tajribasi kengaytirilib, uni har bir hududda o'tkazish va 1 ming yoshni qamrab olish, eng yaxshi tashabbuslar ishtirokida Samarqand shahrida xalqaro inklyuziv yoshlar oromgohi tashkil etiladi.

Davlatimiz rahbari yoshlarni uy-joy bilan ta'minlash, kitobxonlikni ommalashtirish masalalariga to'xtaldi. Yosh oilalar uchun uy-joy ipoteka dasturi doirasida kredit stavkasining 14 foizdan oshgan qismi budjetdan qoplab berilishini aytdi.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi orqali eng iste'dodli yozuvchilarga ijodiy buyurtma berib, bir yil davomida oyiga 20 million so'mdan haq to'lash, eng sara xorijiy adabiyotlarni o'zbek tiliga hamda milliy adabiyotni xorijiy tillarga tarjima qilish va chop etish xarajatining yarmini qoplash belgilandi.

Yangi o'quv yiliga qadar eng yaxshi 100 ta asardan iborat to'plamni tayyorlab, barcha maktab va texnikumlarga yetkazish, eng faol kitobxon o'quvchilarni 10 million so'mdan mukofotlash vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan muloqot doirasida “Raqamli

texnologiyalar yo'nalishida eng yaxshi startap” — “President Tech Award” loyihasi g'olblarining taqdimoti bilan tanishdi.

Mazkur tanlov Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi tomonidan Raqamli texnologiyalar vazirligi ko'magida 2023-yildan boshlab o'tkazib kelinmoqda. Uning umumiy mukofot jamg'armasi 1 million dollarni tashkil etadi.

Tanlovda sun'iy intellekt, ijtimoiy texnologiyalar, MicroSaaS va AdTech, moliyaviy texnologiyalar va tadbirkorlik, o'yin dasturlari hamda maxsus yo'nalish — xakaton bo'yicha eng namunalı loyihalar tanlab olinadi.

Ilk tashkil etilgan tanlovda to'rt mingdan ziyod ishtirokchi qatnashgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, ularning soni olti mingga yaqinlashdi. Jamoalarning soni esa 444 tadan 862 taga yetdi.

Davlatimiz rahbariga tanlov g'olblari o'zlarining startap loyihalari, ularning afzalliklari va amaliy samarasi xususida so'zlab berdi.

— Biz kichik startaplar katta-katta loyihalarga, daromadli biznesga aylanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga tayormiz. Buning uchun har bir startapchi bilan muloqot qilish, unga kerakli yordamni ko'rsatish lozim, — dedi Prezidentimiz.

Mamlakatimiz yetakchisining yoshlar bilan navbatdagi muloqoti ham ana shunday qizg'in o'tdi. Aytilgan fikrlar, taklif va tashabbuslar ko'p bo'ldiki, ularni bir maqolaga sig'dirish qiyin. Prezident yoshlarni chin dildan qo'llamoqda. Ularning o'qish-o'rganishi, erkin va samarali mehnat qilishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, yaratib berilmoqda. Yoshlarning buguni va kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega ekanini aytilmoqda.

Yoshlarimiz ham bunga javoban faqat ichki imkoniyatlar bilan cheklanib qolmayapti. Ular koinotni zabt etish yo'lida dard odamlamoqda, nufuzli xalqaro ilmiy mukofot va darajalarni ko'zlammoqda. Bu gaplar muloqot chog'ida so'z olgan yoshlar vakillari tomonidan qayta-qayta takrorlandi. Muhimi, buning uchun barcha sharoitlar muhayyo etiladi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari yoshlar bilan muloqot qilib, ularning turli sohalarga oid taklif va tashabbuslarini tingladi.

Tadbir davomida mutasaddilarning hisobotlari ham eshitildi.

**Dilshod ULUG'MURODOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri**

Mamlakatimiz taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yar ekan, islohotlar samarasi endi amaldagi natija bilan baholalanmoqda. 2026-yil uchun qabul qilingan davlat dasturi ana shu tamoyilga asoslangan holda ishlab chiqilgan va strategik maqsadlarni aniq amaliy mexanizmlar bilan uyg'unlashtirgan muhim siyosiy-huquqiy hujjatdir.



**O'ZBEKISTON
2030**

NATIJADORLIK VA MAS'ULIYAT MEZONI

Mazkur dastur “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalarni izchil davom ettirib, iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga, uning samarasini aholi farovonligiga yo'naltirishni ko'zda tutadi. Unda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, sanoatni diversifikatsiyalash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, investitsiya muhitini yaxshilash kabi vazifalar belgilangan.

Iqtisodiy islohotlar yangi ish o'rinlari ochish, aholi daromadini oshirish va ichki bozor barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, eksport salohiyatini oshirish va innovation o'sish modelini shakllantirish global raqobat sharoitida mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi.

Dasturda mahallalarni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunki islohotlarning haqiqiy samarasi joylarda, aholi hayotida namoyon bo'ladi. Infratuzilmani yaxshilash, bandlikni ta'minlash, ijtimoiy muammolarni manzillı hal etish — barchasi mahallada amalga oshiriladi. Bu esa mahalliy kengashlar va deputatlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Shuningdek, ijtimoiy

himoyani kuchaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida sifat o'zgarishlari qilish, ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash kabi vazifalar jamiyatda adolat muhitini mustahkamlashga qaratilgan.

Sud-huquq sohasini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va korruptsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini kuchaytirish ham dasturning ustuvor yo'nalishlaridan.

Deputat sifatida 2026-yilgi davlat dasturi yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi izchil va mas'uliyatli qadamligini ta'kidlammoqchiman. Uning muvaffaqiyatli ijro intizomi, parlament nazorati va jamoatchilik ishtiroki samaradorligiga bog'liq.

Mazkur dastur strategik maqsadlarni hayotga tatbiq etish orqali barqaror iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va fuqarolar farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, islohotlar inson manfaatini ustuvor qo'yg'an taraqqiyot modeli asosida amalga oshirilayotir.

**Guljan XALMURATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati**

Sharh



MAHALLIY ISHLAB CHIQARISHNING GLOBAL YETKAZIB BERISH ZANJIRLARIGA INTEGRATSIYALASHUVI

Yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yagona tizim yaratilgan. Imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan tadbirkorlar qisqa vaqt ichida faoliyatini kengaytirib, sanoat sohasi va iqtisodiyot tarmoqlariga kirib bormoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalar o'rtasida sanoat kooperatsiyasi yildan yilga kengayib borayotgani quvonarli. Davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlar xaridini rag'batlantirish ham doimiy e'tiborda.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 4-fevraldagi “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoni bu borada tadbirkorlarga yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

— Farmon bilan sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari sohasida yagona boshqaruvni joriy etish orqali yaxlit va muvofiqlashtirilgan davlat siyosati yuritilishini yo'lga qo'yish kabi qator dolzarb vazifalar belgilandi, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi departament boshlig'i o'rinbosari Furqat Rahmonov. —

Xususan, mahalliy ishlab chiqarishning global yetkazib berish zanjirlariga

integratsiyalashuvini ta'minlash, o'zlashtirish tavsiya etiladigan raqobatbardosh mahsulotlarni aniqlash, yirik korxonalarning ishlab chiqarish zanjirlariga kichik va o'rta biznes subyektlarini keng jalb qilish kabi ishlar shular jumlasidandir. Eng asosiysi, mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hisobiga tannarxni pasaytirish farmonning asosiy maqsadi etib belgilandi.

Hujjat bilan Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi tashkil etildi. Iqtisodiyot va moliya vazirligining davlat xaridlari sohasidagi vazifa va vakolatlari ushbu agentlikka o'tkazilmoqda.

Shuningdek, Sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari agentligi faoliyatining asosiy yo'nalishlari, agentlik tuzilmasiga



o'tkaziladigan tashkilotlar ro'yxati, agentlik boshqaruv kengashining tarkibi tasdiqlandi.

Tarmoqlar ehtiyoji hamda xorijiy tajriba tahlili asosida o'rta va uzoq muddatda mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqiladi va amaliyot yo'lga qo'yiladi. Bunda dasturlar drayver sohalarga qamrab oladi. Dasturlar tarmoq va hududlartomonidan shakllantirilib, agentlik bilan kelishiladi va kengash tomonidan tasdiqlanadi. Buning uchun Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etilib, loyihalar ushbu jamg'arma tomonidan moliyalashtiriladi. E'tiborlisi, bu yangi tizim iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2026-yil 1-iyuldan boshlab agentlik respublika va mintaq bozorini tahlil qilib, milliy iqtisodiyotga qo'shiladigan qiymat zanjirlarini oshirishga xizmat qiluvchi o'zlashtirish tavsiya etiladigan raqobatbardosh mahsulotlar ro'yxatini sohalar kesimida bosqichma-bosqich shakllantiradi va e'lon qilib boradi.

Yirik investitsiya loyihalari bo'yicha milliy iqtisodiyotga qo'shiladigan qiymatni kompleks baholash amaliyoti joriy etiladi. Ya'ni endilikda investitsiya loyihalari

boshidan oxirigacha qo'shilgan qiymat yaratilgan aniq tartib asosida tashkil etiladi. Har bir investitsiya loyihasi bo'yicha vazirlik, tarmoq va hudud rahbarlari muzokaralar jarayonidanoq hamkorga mahalliy mahsulotlar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini taklif etadi. Natijada sanoat korxonalarida ishlab chiqarish hajmi o'sadi va yangi ish o'rinlari ochilishiga zamin yaratiladi.

Bundan tashqari, agentlik o'zlashtirish tavsiya etiladigan raqobatbardosh mahsulotlar ro'yxatiga kiritilgan tovarlarni o'zlashtirgan tadbirkorlik subyektlari bilan o'rnatilgan tartibda kafolatlari xarid shartnomalari tuzadi.

Joriy yilda O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi kutilmoqda. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qator murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, farmon bilan mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tadbirlar nazarda tutilmoqda.

Xususan, agentlik huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etiladi va 2026-yil 1-iyuldan boshlab jamg'arma mablag'lari hisobidan tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari orqali xorijiy valyutada yillik 6

foiz, milliy valyutada yillik 12 foiz stavkada 10 yil muddatgacha, shu jumladan, 2 yillik imtiyozli davr bilan bitta loyiha uchun 10 million AQSH dollarigacha kredit ajratiladi.

Sanoat startaplari yangi turdagi yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish bilan bog'liq xarajatlarning 50 foizigacha, biroq 10 milliard so'mdan ko'p bo'lmagan miqdorda har yili eng yaxshi 10 tagacha loyihaga tanlov asosida subsidiyalar beriladi.

Farmon bilan davlat xaridlarining samaradorligini oshirish uchun 2027-yil 1-yanvardan boshlab kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining davlat xaridlaridagi ishtirokini kengaytirish maqsadida davlat xaridlarida xarid predmetini texnologik zanjirlar, funksional bosqichlar va ish turlari kesimida alohida lotlarga bo'lish amaliyoti joriy etiladi. Bunda xarid predmetini bitta lotga birlashtirishga faqat iqtisodiy samaradorlik, texnologik uzviylik yoki ekspluatatsiya xavfsizligi bilan bog'liq asoslar mavjud bo'lgandagina yo'l qo'yiladi. Mazkur tartib mahalliy va xorijiy ishtirokchilarga teng va ochiq shartlarda qo'llaniladi.

Hujjatga muvofiq, joriy yil 1-iyuldan boshlab vositachi-broker va dilerlarga ishlab chiqaruvchilar bilan shartnoma tuzish orqali ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni davlat xaridlarida sotish huquqi beriladi.

2026-yil 1-apreldan esa byudjet buyurtmachilarining davlat xaridlari doirasida chet ellik yetkazib beruvchilar bilan bir qatorda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirok etganda, ularga nisbatan taklif etilgan eng past import tovarlarining narxidan belgilangan miqdorlarda narx preferensiyasi beriladi. Xususan, uchta va undan ortiq mahalliy ishlab chiqaruvchi ishtirok etgan taqdirda o'n besh foiz, ikkita mahalliy ishlab chiqaruvchi ishtirok etgan taqdirda o'n ikki foiz, bitta mahalliy ishlab chiqaruvchi ishtirok etgan taqdirda sakkiz foiz, 1-oktabrdan boshlab byudjet buyurtmachilarining davlat xaridlari doirasida mahalliy xizmatlarga nisbatan taklif etilgan eng past import xizmatlar narxidan 15 foiz miqdorida preferensiya qo'llaniladi.

Shu yil 1-sentabrden boshlab davlat xaridlari maxsus axborot portalida xarid

qilish tartib-taomillari ishtirokchisining faoliyatini idoralararo axborot almashinuvi orqali avtomatik tarzda baholash imkonini beruvchi elektron scoring tizimi ishga tushiriladi. Bu tizim vositasida ishtirokchilarga davlat xaridlaridagi “yuqori”, “o'rta”, “past” va “eng past” ishonchlilik darajalari beriladi.

Farmon bilan ishtirokchilarni rag'batlantirish maqsadida bir qator yangi tartiblar joriy etilmoqda. Ya'ni “yuqori” ishonchlilik darajasiga ega ishtirokchilar uchun garov puli to'lash talab etilmaydi. Eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolarida ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan takliflarga ishonchlilik darajasiga mutanosib ravishda qo'shimcha ball beriladi.

Davlat xaridlari sohasida “eng faol tadbirkor” tanlovda davlat xaridlaridagi ishonchlilik darajasi “yuqori” bo'lgan davlat xaridlari ishtirokchilarining nomzodlari qo'llab-quvvatlanadi.

Farmonda yirik va ahamiyatli investitsiya loyihalari doirasida mahalliy mutaxassislarni jalb qilish rejasi, korxonalarining talabi va buyurtmanomalariga asosan mahalliy va xorijiy ta'lim tashkilotlarida mutaxassislarni tayyorlash, texnologiyali uskuna va jihozlar ishlab chiqarish zavodlarida mutaxassislar malakasini oshirish bo'yicha ham vazifalar belgilandi.

Shuningdek, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, yangi raqobatbardosh mahsulotlarni o'zlashtirishda bevosita qatnashganligi uchun vazirlik, xo'jalik birlashmalari va tashkilotlarning boshqaruv, muhandis-texnik va boshqa xodimlarini yillik bir marta to'lanadigan mukofotlar tarzida moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etiladi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu farmon O'zbekistonda mahalliy ishlab chiqarish, sanoat kooperatsiyasi va davlat xaridlari sohasida tub institutsional islohotlarni boshlab beruvchi strategik hujjatdir. U nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki kichik biznes rivoji, texnologik mustaqillik va milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan bilan yanada ahamiyatli.

**Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri**



Hujjatga muvofiq, joriy yil 1-iyuldan boshlab vositachi-broker va dilerlarga ishlab chiqaruvchilar bilan shartnoma tuzish orqali ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni davlat xaridlarida sotish huquqi beriladi.

Mazkur hujjat ijrosi, avvalo, iqtisodiy taraqqiyotga, xalqimiz hayotiga ko‘plab yangiliklar, qulayliklar olib kiradi. Shu bilan birga, yurtimizning yaqin istiqboldagi taraqqiyotiga, xalqimiz farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.



TUPROQ UNUMDORLIGI VA PAXTA HOSILDORLIGINI OSHIRISHDA GUMUSLI ORGANIK O'G'ITLARNING O'RNI

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida tuproq holatini yaxshilash, biologik tabiiy faolligini oshirish, unumdorligini saqlash, sho'rlanish, degradatsiyani kamaytirish, yer osti, zaxkash, kollektor suvlarni tuzlardan, zararli toksikologik birikmalardan tozalab, qayta foydalanishni yo'lga qo'yish, paxta hosildorligini oshirish muammolariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmokda.



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda



G'iyozjon RAHIMOV,
Irrigatsiya va suv muammolari
ilmiy-tadqiqot instituti
bosh ilmiy xodimi,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori,
professor

Prezidentimizning 2025-yil 9-dekabrda "Paxtachilik va g'allachilikda hosildorlikni oshirish uchun yuqori samarador intensiv agrotexnologiyalarni qo'llashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida paxta va g'alla yetishtirishda ilg'or tajribalar asosida intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish, paxta hosildorligini oshirishda ilm-fan va innovatsiyalarga asoslangan yangi tejamkor

filtratsiya kuchayib, o'simliklar oziqlanishi uchun beriladigan mineral o'g'itlarning katta qismi sug'orilayotgan suv bilan yer ostiga yuvilib ketib, hosildorlik pasayishiga olib kelyapti, global iqlim o'zgarishlari sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi, suv tanqisligi, ekologiya, atrof-muhit va havoning zararlanshiga sabab bo'lmoqda.

2025-yil 17-noyabrda davlatimiz rahbari paxtachilikda samaradorlikni oshirish va ilg'or texnologiyalar asosida rivojlantirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi. Past hosil olayotgan fermerlar bilan manzilli ishlash, ilg'or agrotexnologiyalar va oziqlantirish amaliyotlarini to'g'ri joriy etish, agronom tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish choralari belgilab olindi. Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, tegishli topshiriqlar berdi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtiriladigan tuproqlar gumus bilan kam ta'minlangan. Uning o'rtacha miqdori 0,4-2 foizni tashkil etadi. Oxirgi 30-40 yil ichida sug'oriladigan ekin maydonlarida gumus miqdori 35-40 foiz kamaydi. Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish davomida gumus moddalarning minerallashuvi natijasida ekin turiga agrotekhnik choralarga bog'liq ravishda har gektar ekin maydonidan gumus miqdori yiliga 0,5 tonnadan 2 tonnagacha kamayadi.

Mamlakatimizda hozirgi vaqtda sho'rlangan, degradatsiyaga uchragan, gumus miqdori, unumdorligi past yerlar umumiy sug'oriladigan yer maydonlarning 40 foizga yaqin qismini tashkil etadi. Ekinlarning optimal darajada o'sib rivojlanishida eng asosiy katalizator bo'lgan gumus miqdori kamayishi oqibatida unumdorlik va hosil pasayib, suv tanqisligi yanada kuchayadi.

Bu holat hozirgi vaqtda yer yuzining barcha qismida, jumladan, mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham katta muammo bo'lib qolmoqda. Tuproqda o'simliklar uchun zararli vilt, ildiz chirishi, gommoz kabi bir qancha kasalliklar



Najmiddin USANBOYEV,
O'zFA Umumiy va noorganik
kimyo instituti direktorining
ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari,
texnika fanlari doktori,
professor

tuproqlarda sho'rlanishga sezgir bo'lgan o'simliklarni ko'paytirishni chegaralab qo'yadi.

Sho'rlanishning sabablari haqida fikr qiladigan bo'lsak, birlamchi — tabiiy hamda ikkilamchi sabablar, ya'ni inson faoliyati natijasida kelib chiqishini muhokama qilishimiz zarur.

Tabiiy sho'rlanish qurg'uch iqlim va bug'lanishning yuqoriligi, minerallangan yer osti suvlarining yaqin joylashgani hamda sho'rlangan

Masalan, sho'rdan o'sadigan o'simliklarning rizosferasidan ajratib olingan, ularning o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lgan Fitobiosol preparatining titri ≥ 108 KOE/ml bo'lgan suyuq preparatidan tomchilatib sug'orishda foydalanish mumkin ekani aniqlangan va ishlab chiqarishga tavsiya qilingan.

Tuproqni sho'rdan tozalashga Fitobiosol preparatidan 2 xil usulda foydalanish mumkin.

Birinchisi, chigitni ekishdan oldin Fitobiosol preparati bilan aralashtirilgan suvda ivitish.

Ikkinchisi, tomchilatib sug'orishda tavsiya, qo'llanmalar asosida foydalanish.

Fitobiosol preparatining normasi bir gektar yerga 6 litr hisobida tavsiya qilingan. Bu miqdor chigitni ekishdan oldin ivitishda 60 litr suvga aralashtiriladi. Tomchilatib sug'orish tizimida bir gektar yerga qancha miqdordagi suv sarflansa, shunga 6 litr fitobiosol aralashtirib beriladi. Fitobiosol preparati texnologiyasini qo'llashda O'zFA Mikrobiologiya instituti olim va ilmiy xodimlari kafolatlari yordam beradi.

Sanoat usulidagi gumusli superfosfatni qo'llash

Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-fevraldagi "Qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida gumusga boy oddiy superfosfat o'g'itini ishlab chiqarishni tashkil etish hamda o'g'itlarni yerdan foydalanuvchilarga shartnoma asosida yetkazib berishni yo'lga qo'yish belgilangan. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash va tuproqlar unumdorligini yaxshilash maqsadida O'zFA Umumiy va noorganik kimyo instituti ilmiy xodimlari tomonidan yaratilgan texnologiya asosida Navoiy viloyatidagi "Elkimyo-Agroximoya" korxonasida 2025-yilda 7,4 ming tonna mahsulot ishlab chiqarildi va fermer xo'jaliklariga yetkazib berildi.

Gumusli oddiy superfosfat hamda biogumus kabi organik o'g'itlarni qo'llagan xo'jaliklarda paxta hosildorligi 2024-yildagi 28,2 sentnerdan 2025-yilda 37 sentnerga yetgan. Shuning uchun hozirdan boshlab "Elkimyo-Agroximoya" korxonasida ishlab chiqarilayotgan hamda respublikamizning barcha viloyat, tuman fermer xo'jaliklarida sinovdan o'tgan gumusli oddiy superfosfatni talab darajasida olish va qishloq xo'jaligi ekinlarida qo'llash tavsiya etiladi.

Gumusli oddiy superfosfatni paxta maydonlarining har gektariga 2 tonnagacha qo'llash lozim. Ushbu o'g'it solinganda yerga ko'p miqdordagi organik o'g'it bilan birga bir gektar yer maydoniga 140-150 kilogramm ta'sir qiluvchi modda hisobida fosfor tushadi.

40 ming tonna qo'shimcha hosil — iqtisodiy samaradorlik

2025-yilda respublikamiz paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bo'yicha agrotekhnik tadbirlar uchun davlat tomonidan subsidiya ajratish tajribasi sinovdan o'tkazildi. Prezidentimizning 2024-yil 13-fevraldagi "Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, 2025-yilda tajriba tariqasida paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bo'yicha yerdan foydalanuvchilarga davlat byudjeti mablag'lari hisobidan har bir gektar yer uchun bir million so'mdan subsidiya ajratildi.



Boshqacha aytgach, 13 ta tumanda faoliyat yuritayotgan 1692 fermerga paxta maydonlarida gumusli organik o'g'itlarni qo'llashi uchun 55,8 milliard so'm berildi.

Natijada hosildorlik 2024-yildagiga nisbatan gumusli o'g'itlar qo'llagan tumanlar — Popda gektariga 16,2 sentner, Jarqo'rg'onda 14,8 sentner, Ulug'norda 11,8 sentner, Vobkentda 8,32 sentner, Sayxunobodda 6,5 sentner oshdi. Shuningdek, bunday maydonlarda hosildorlik oshishi bilan birga mineral o'g'it sarfi 30 foizgacha qisqargan. Jarqo'rg'on tumanidagi "Oqgo'rg'onlik Asadbek" fermer xo'jaligida 17 gektar yerga gumusli organik o'g'it solish hisobiga gipsli tuproqda ham g'o'za bir xil rivojlangan, suv va o'g'it sarfi kamaygan. Qarshi tumanidagi

o'zida fosfor-gumusli organik o'g'it tayyorlash imkoni bor. Buning uchun qoramol go'ngi nokondition fosforit bilan 100:10 og'irlik nisbatda, ya'ni 1000 kilogramm qoramol go'ngi 100 kilogramm fosforit xomashyosi bilan 55-70 foiz namlikda aralashtiriladi. O'g'it, ya'ni kompost eni 1,5-2 metr, chuqurligi 0,5-1 metr va uzunligi 10-20 metr bo'lgan joyga 1,5-2 metr balandlikda zichlamasdan tashlanadi. Ustidan 5-10 santimetr qalinlikda tuproq bilan qoplanadi. Har oyda kompostning uski qismidagi tuproq alohida ajratib olinib, aralashma namligi 65-70 foizga yetgunga qadar suvlanadi va aralashtiriladi. So'ngra tuproq bilan qayta qoplanadi. O'g'it kamida 3 oy muddatda tayyor bo'ladi. Uning sifati laboratoriyada tahlil qilinadi.

Yuqorida keltirilgan tartibga asosan tayyorlangan fosforli-gumusli o'g'itni paxtaga, g'allaga, sabzavot va poliz ekinlariga berish lozim. Ushbu o'g'itning 1 tonnasida namligiga bog'liq ravishda 1-2 foizgacha R2O5 bo'ladi. Uni 1 gektar paxta maydoniga

5 tonnadan 10 tonnagacha qo'llash tavsiya etiladi. Agar har gektar paxta maydoniga 10 tonnagacha qo'llanilsa, bu holda 1 gektar maydonga yuqoridagi miqdordagi organik o'g'it bilan birgalikda 150 kilogramm R2O5 hisobida fosfor tushadi. Bu o'rtacha yillik g'o'za o'simligi uchun me'yordagi fosfor hisoblanadi. Bugungi kunda bu tavsiyani amalga oshirish juda muhim. Ayni paytda ammosos o'g'itining 1 tonnasini xo'jaliklar 9,5 million so'mdan sotib olaypti. Agar fermer xo'jaliklari yuqoridagi keltirilgan tavsiyalar bo'yicha uni o'zlarida tayyorlasa, har tonnasi o'rtacha 3,5-4 million so'mdan tushadi.

Eng ahamiyatlisi, tuproqqa katta miqdordagi organik o'g'it solinsa, ular mavsum davomida berilgan mineral o'g'itlar hamda tuproqdagi foydali minerallarni o'simlik o'zlashtira oladigan shaklga o'tishiga ta'sir etadi. Natijada ko'chatlar to'liq unib chiqadi, rivojlanadi. Shonalashda va gullashda hosil to'kilmaydi. Hosildorlik yuqori bo'ladi. Shuningdek, namlik saqlanib, sug'orishda suv sarfi kamayib, tuproqda filtratsiya sharoitlari optimallashtiriladi. Berilgan mineral o'g'itlar yer ostiga yuvilib ketishining oldi olinadi.

Fosfor-gumusli o'g'it tarkibidagi fosfor miqdori bilan kelib chiqib, uni tuproqdagi ozuqa elementlari kamayishiga qarab vegetatsiya davrida ham berish mumkin. Uning tarkibida g'o'za o'sib rivojlanishi uchun eng zarur faol moddalar bo'lgani bilan ham boshqa o'g'itlardan farq qiladi.

Hozirgi vaqtda birgina Toshkent viloyatida bir yilda 100-200 ming tonnagacha fosfor-gumusli, biogumus hamda 1 million gektar yerga yetadigan Bioklad — A kabi organik o'g'itlar ishlab chiqarish imkoni bor. Yangiyo'l, Qibray, Quyi Chirchiq, Zangiota, O'rtacha Chirchiq tumanlarida bu ishlar juda katta salohiyat va e'tibor bilan yo'lga qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, O'zRFA umumiy va noorganik kimyo instituti olim, mutaxassis va ilmiy xodimlari barcha viloyat, tuman xo'jaliklariga borib, ushbu tavsiya bo'yicha fosfor-gumusli organik o'g'itni tayyorlashda amaliy yordam berishga tayyor.

ORGANIK O'G'IT ME'YORIDA SOLINGANDA:

1. Tuproqning PH buferizatsiyasi yaxshilanadi.
2. Minerallar o'simlik tomonidan faol o'zlashtiriladi.
3. G'o'za ko'chatlari to'liq unib chiqadi.
4. Garmsel vaqtida ham shona to'kilmaydi.
5. Namlik saqlanib, suv sarfi kamayadi, qurg'ochilikka chidamliligi ortadi.
6. Mineral o'g'itlar yer ostiga yuvilib ketmaydi.
7. Hosildorlik va sifat oshadi.



yondashuvlarni qo'llash vazifalari belgilab berildi.

Bu boradagi chora-tadbirlar davlatimiz rahbarining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida ham nazarda tutilgan. Xususan, gumus bilan kam ta'minlangan 1 million 200 ming gektar yer maydoni unumdorligini oshirishga keyingi 3 yilga taqsimlangan holda subsidiyalari ajratish dasturini tumanlar kesimida tasdiqlash nazarda tutilgan. Tuproq unumdorligi va hosildorligini oshirish maqsadida gumusga boy o'g'itlarni qo'llash uchun BHMning 3 baravari miqdorida va davlat byudjetidan subsidiya ajratish hamda ijrosini ta'minlash vazifalari alohida ko'rsatib o'tilgan.

2025-yilda ushbu amaliyot sinov tariqasida amalga oshirilib, samarali natija ko'rsatdi. O'tgan yili tuproq unumdorligi va hosildorligini oshirish maqsadida 13 ta tumandagi fermerlarning 54,2 ming gektar paxta maydonlarida gumusli o'g'itlarni qo'llash uchun davlat byudjetidan 55,8 milliard so'm miqdorida subsidiya ajratildi. Natijada har gektar paxta yeridan 2024-yildagi o'rtacha 28,2 sentner o'rniga 2025-yilda gumusli o'g'it qo'llangan holda 37 sentner hosil olindi.

Tuproq tanazzuli va sho'rlanishni kamaytirish

Yerning tanazzulga uchrashi insoniyatning eng yirik muammolaridan bo'lib, undan yer yuzining 40 foizi hamda 3,2 milliard odam aziyat chekmokda. Markaziy Osiyoda yerlarning 37 foizi, O'zbekistonda 26 foizi degradatsiyaga uchragan, sho'rlanish darajasi 40 foizni tashkil qiladi. Tuproqdagi gumus miqdori kamayishi natijasida tuproqning namlikni saqlash xususiyati pasayib,

ko'payishi kuzatilaypti. Shu bilan birga, yer osti zaxkash, kollektor, drenaj, sizot suvlarda tuz va toksikologik birikmalar ko'payib, sho'rlanishni kuchaytiradi, ulardan ekinlarni qayta sug'orishda foydalanganda, ko'chatlar nobud bo'lmoqda. Natijada hosil kamayib, xarajatlar ko'paymoqda.

Tuproqning sho'rlanishi o'simliklarning ildiz tizimi atrofida yengil eriydigan tuzlarning yig'ilishi bo'lib, uning natijasida qishloq xo'jaligi o'simliklari hosildorligi pasayadi va agrolandshaftlar degradatsiyaga uchraydi.

Orol dengizi qurishi bilan mamlakatimizda sho'rlanish jarayoni kuchaydi. Bunga noto'g'ri sug'orish hamda yer osti suvlarining ko'tarilishi asosiy sabab sifatida qarab kelinadi. O'zbekistondagi haydaliq dehqonchilik qilnadigan tuproqlarning anchagina qismida sho'rlanganlik darajasi baland, bu esa ushbu

jinslar sabab, ikkilamchi sho'rlanish esa sug'orish tizimi samarasizligi, drenaj yo'qligi, sho'rlangan suv bilan sug'orish hamda agrotekhnikadan buzib foydalanish oqibatida paydo bo'lishi haqida gazetonxlariga ma'lumot berish o'rindir.

Bu muammoning qanday yechimi bor?

Qadim davrlardan beri bu borada turli usullardan foydalaniladi. Masalan, sho'rlangan tuproqni yuvish, samarali drenaj tizimini yaratish, sho'rlangan tuproqni gipslash va sho'rga chidamli o'simlik navlarini ekish kabilar tavsiya qilinadi. Sho'rga chidamli mikroorganizmlardan foydalanish esa zamonaviy usullardir. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutida ana shu usuldan foydalanilib sho'rlangan tuproqlarda samarali bo'lgan multishitamm konsorsiumlar yaratilgan va ularni amaliyotda qo'llash sharoitlari aniqlanib, patentlar bilan himoya qilingan.

TUPROQLARNI SHO'RDAN TOZALASH 2 VARIANTDAN IBORAT:

1-variant: FITOBIOSOL preparatining 6 litrini 60 litr suvga aralashtirib, 1 ga yerga yetadigan urug'ni ivitib ekiladi.

2-variant: FITOBIOSOL preparatining 6 litrini 1 ga yerga sarflanadigan tomchilatib sug'oriladigan suvga aralashtirib beriladi.



XAYRULLANING JASORATI

O‘zbekiston Prezidenti Sankt-Peterburg shahrida sodir bo‘lgan favqulodda va murakkab vaziyatda o‘z joni va salomatligini xavf ostiga qo‘yib, ko‘p qavatli uyning yuqori qismidan tushib ketgan bolakayning hayoti va salomatligini saqlab qolgani uchun yurtdoshimiz Xayrulla Ibodullayevni “Jasorat” medali bilan mukofotladi.

Bu dunyoda inson bo‘lib Yashash o‘zi matonatdir. Bitta inson bolasini Qutqarmoq ham jasoratdir.

Tirikchilik deb yurganding Sen yetti yot ellarda. O‘zbek nomin yana bir bor Doston qilding tillarda.

Yovuzlik va insoniylik — Dunyo ikki tarafdir. Bitta inson bolasini Asrab qolmoq sharafdir.

“Qaydan ekan? Kim ekan?” deb So‘rganlar ko‘p bo‘ldi. Vatandoshlar, yoru do‘stlar — Ko‘p bo‘lsa ham xo‘b bo‘ldi.

Qutqarmishdir irq talashmay Qoshu ko‘zdek bolasi — Bitta o‘ris bolasini, Bitta o‘zbek bolasi.

Osmono‘par uydan nogoh Ko‘chib tushding, bolajon. Bir o‘zbekning quchoq‘iga Uchib tushding, bolajon.

O‘zbek bag‘ri mehr uchun Mangu ochiq bag‘irdir. Bu mehri bilmaganlar Bilsang xoru sag‘irdir.

Ikki yuz ming zor yetimga Panoh bo‘lgan millatsan. Davlatsanki, millating bor, Millatsanki — davlatsan!

Ish tutsaydi butun dunyo Bir o‘zbekday qo‘l ushlab — Yer yuzida qolmas edi Nizolar va urushlar.

Senga bo‘lsin olqishlaru Va eng oliyshon rag‘bat. Rahmat bo‘lsin, eng avvalo, Ota-onangga rahmat!

Polvon yurtning o‘g‘lonisan, Qashqadaryo farzandi. Amir Temur bobolarining Chinoridan payvandi.

Tanti elning dilbandlari Rang-ro‘yi bo‘lmas somon. Xayrullajon, omon bo‘lgil, Omon bo‘l, Xayrullajon!

Ko‘ksingdagi “Jasorat”dan Go‘yo nurlandi olam. Qayda bo‘lsang xorlik ko‘rma, Joning sog‘ bo‘lsin, bolam!

Aytgum, mendan so‘rsalar gar Qir-adirlar lolasi: O‘zbekning bir bolasi-da, Oddiy o‘zbek bolasi!..

Sirojiddin SAYYID, O‘zbekiston xalq shoiri



DUNYO ERUR ENDI BU MAYDON

Sen maydonda O‘zbekistonsan!



Qutibeka RAHIMBOYEVA, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi

“Futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi o‘ttiz to‘rt yildan so‘ng jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi”. Bu xushxabarni eshitganimizdan buyon haftalar, oylar o‘tdi. Lekin dunyoda shunday mujdalar bo‘lar ekaniki, har gal eshitganingda tuyg‘ularing yangilanaveradi. Tovushlar va so‘zlar xuddi birinchi bor qulog‘ing ostida yangragandek jarang sochaveradi... Faqat vaqt o‘tgan sayin bu xushxabarning quvonchi yoniga yana bir hissiyot — kutish qo‘shilib borar ekan. “Mana buncha kun qoldi”, deya kun va soat sanash kayfiyati... Biz ayni kunlarda ana shunday kayfiyatdamiz.

O‘zimizni chalg‘itishga harakat qilyapmiz. Xo‘sh, xalqning ko‘ngli faqat Amerikaning sport maydonlarida o‘tadigan futbol bo‘yicha jahon chempionatiga bog‘lanib qoldimi? Yoshi ulug‘lar bilan bog‘liq yutuqlarni bir chekkaga qo‘yib, yoshlarimiz erishayotgan muvaffaqiyatlar haqida fikr yuritsak ham, faxrlanib aytishga arziydigan yangiliklarimiz ham oz emas. Mana, yaqindagina o‘n to‘qqiz yoshli o‘g‘lonimiz Javohir Sindorov shaxmat bo‘yicha misli ko‘rilmagan g‘alabani qo‘lga kiritdi. Undan so‘ng Nodirbek Abdussattorov...

O‘n ikki yoshida “Ayollar o‘rtasida FIDE sport ustasi” unvoniga sazovor bo‘lgan Sarvinoz Begmuratova... Quvonamiz, desak quvontiradigan, kunlarimiz va haftalarimizga mazmun baxsh etib kelayotgan bunday suyuqchilik xabarlar faqat sport sohasida emas, boshqa yo‘nalishlarda ham bisyor. Deylik, Farg‘ona shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o‘quvchisi Dilafro‘z Sobirova Garvard universitetining integrativ biologiya yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilindi. U to‘rt yilga yuz foizlik grant yutib oldi... Har birini eshitganimizda “Zo‘r! Bardavom bo‘lsin!” deya munosabat bildirib qo‘yamizu, yana xayolimiz futbolga ketaveradi. Tasavvurimizda minglab tomoshabin suron solayotgan maydonlar jonlanaveradi. Yuragimiz yana “Qachon... qancha qoldi?” deya dukurlaydi. Axir bu zavqu sururlarga yetish uchun qancha yo‘l bosib o‘tmadik...

Yaxshi eslayman: maktabimizda sport zali ham, sport maydonchasi ham yo‘q edi. Boshlag‘ich sinflar ta‘lim oladigan eski binoning yonida, agar maydon deb atash mumkin bo‘lsa, eni va bo‘yi besh-olti metr keladigan bir joy bo‘lardi. U yerda ikki tarafiga yog‘och tiklanib, o‘rtasiga to‘r tutilgan bir ashyo bor edi. To‘r jonivor ham yomg‘ir va shamollarga birday boshini tutib yashagani uchun bo‘lsa kerak, u yer-bu yeri titilgan, salqi tortib qolgan edi. “Maydon”ning bir chekkasida tumik, boshqa chekkasida esa simyog‘ochsimon narsa tiklangan bo‘lib, pastida yarim metrcha arqon likillab turardi. Lekin shu bor jihozlarda ham kimdir arqonga, yana boshqamiz turnikka tirmashardik. Shusiz ham hilvirab yotgan to‘rmi “savallab”, goh futbol, goh voleybol o‘ynalardi.

Qishlog‘imizda chavandozlar, polvonlar avlodi ko‘p bo‘lgan. Shaxsan mening ona tarafdan katta bobom Xolmonpolvon deya dovrug‘ qozongan, kuragi yerga tegmagan polvon bo‘lgan. Lekin sportga e‘tibor yo‘qligi bois, bu mashhur avlodlardan birorta ham “pichoqqa ilinadigan”, viloyat va respublika tugul tumanga ham shon-sharaf olib keladigan sportchilar chiqmagan. Axir doim takrorlaganimday, sahroda atirgul o‘smaydi-ku. Lekin sportning, ayniqsa, futbolning ohanrabosi shu qadar kuchliki, unga qiziqish o‘tini nimalardan lipillatib pasaytirsam ham butunlay so‘ndira olmaydi.

O‘quvchiligidagi futbolga ishqibozligim talabaligimda yanayam avj oldi. Paxta mavsumlari o‘g‘il bola kurdoshlarimiz qattiq harakat qilib, teradiganini terib bo‘lgach, taroziga tortirishni qizlarga topshirar va xonadonlarga



ota-bobolarimizdan meros tuprog‘imizga yangi g‘urur bayroqlarini tikadigan o‘g‘lon bo‘lsin”, deya tilak tilashni bilmagandir, ammo ularning ham qalbi tubida o‘zbek futbolining dovrug‘i yetib borgan jug‘rofiy kengliklar yanada kengayishini ko‘rish orzusi bor edi.

Ha, bu orzu yillar davomida, hatto “Paxtakor” quyi ligalarga tushib ketgan yillarda ham tirik edi, nafas olib turdi. U yillarning alamini she‘rga ham solganman. O‘shanda maktab o‘quvchisi bo‘lgan o‘g‘limga ataganman bu she‘rni. Najot “Futbolchi bo‘laman”, der edi. “Paxtakor” klubining mashg‘ulotlariga ham qatnagan. Murabbiyi “Professional futbolni salomatligi ko‘tarmaydi. To‘garaklarda chiniqsa bo‘ladi” degan. Mana o‘sha she‘rdan bir parcha:

Katta o‘yinlarda kichik yuraging Xuddi O‘zbekiston darvozasi day. Har “gol”ga joningni kelar to‘laging. Yengilish or-nomus, sha’n azasiday. Mag‘lublik alami bepichoq so‘ysa, Seni maydonlarga kelar tushirgim. Yigit yengilmaydi yurtini suysa, Ishqning yengilganini kim ko‘ribdi, kim?

... Bugun o‘g‘lim o‘ttiz olti yoshga kirdi. Biz o‘sha o‘tgan yillarda birimiz dunyo maydonlariga o‘z bayrog‘ini ko‘tarib chiqqan Fransiyaga, boshqamiz Germaniyaga, yana birimiz Angliyaga, boshqamiz Ispaniyaga ishqibozlik qildik. “Burgutlar” dedik, “Sherlar” dedik. Bahs boyladik. Ikki darvoza tarafga bo‘lindik. Esimda bor: jahon chempionatlarining birida oilamiz bilan Italiyaga ishqibozlik qilganmiz. Hal qiluvchi o‘yin — final yarim tunda bo‘lgan. Asosiy vaqtda durang o‘ynalgan. Penaltilar seriyasida terma jamoa darvozabonining mahorati bilan o‘yin Italiya foydasiga hal bo‘lgan. Soat tonggi to‘rtidan oshib ketgandi. Biz — ota, o‘g‘il, ona, qiz rosa shovqin solganmiz. Davra olib, ko‘p qavatli uyni boshimizga ko‘tarib sakraganmiz. Shunda qo‘shnilardan biri uyquqli ko‘zlari bilan chiqib “O‘zbekiston emas-ku chempion bo‘lgan, buncha xursandchilik qilasizlar?!” degan edi.

Rost, nega boshqa bir mamlakatning g‘alabasidan buncha suyuundik? Balki qadim madaniyat beshigi bo‘lgan davlat ekani uchundir... Balki “Buyuklarga havas qilsang, o‘sha buyuklik senga ham nasib qiladi” degan naqlni eshitib katta bo‘lganimiz, yuragimiz tubida hali-hanuz umid cho‘g‘i

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MOUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-246. 30829 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Suvonov Musahhih: Malohat Mingboyeva Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘za yakuni — 23:55

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05 Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.